



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI NUTQINI RIVOJLANTRISHDA MULTIMODALLI VOSITALARNING SMARADORLIGI

Ahmedov Alisher Hasan o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika inistituti
tayanch doktoranti

email: ahmedovalisher194@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22658250>

Annatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy faoliyatini rivojlantrishda multimodal vositalarning samaradorligi nazariy asoslari, psixologik-pedagogik mexanizmlari va metodik inkoniyatlari tahlil qilinadi. Multimodallik tamoyilining mohiyati, audio, vidio va animatsiya vositalarining imkoniyatlari tahlil qilinadi. Multimodallikning ta'limdagi ahamiyati va o'quvchilarning o'zlashtirishiga ta'siri ochib berilgan. Shuningdek maqolada O'zbekiston ta'limida multimodal vositalarning mavjud holati tahlil qilinib, tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola nazariy hususiyatga ega bo'lib tajriba o'tkazmoqchi bo'lgan izlanuvchilar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: Multimodallik, animatsiya, boshlang'ich sinf, audio vositalar, didaktik yondoshuv.

Butun jahon ta'limida XXI asr boshidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'qitish jarayoniga kirib kela boshladi va keng qo'llana boshlandi. Ayniqsa, o'yin faolyiatida bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu yondoshuv juda yaxshi samar bera boshladi. Chunki bu yoshdagi o'quvchilarni oddiy ko'rgazmalar bilan jalb qilish juda mushkul. Ammo, shu bilan birgalikda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshiga mos, ularning diqqatini torta oladigan va o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladigan multimodal vositalarni tanlash va ishlab chiqish mushkul muammoga aylanib bormoqda. Bu borada o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantrishga qaratilgan multimodal texnologiya va vositalar juda kamchilikni tashkil qiladi. Bor bo'lsa ham ma'nan eskirgan yoki bugungi zamon talabiga to'la javob bermaydi. Bu borada yurtimizda salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Hususan, O'zbekiston respublikasi prizidentinig 20.10.2025 yildagi PQ-308-son "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorini ham misol tariqasida keltrishimiz mumkin. Bu qarorda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va samarali foydalanish, ta'lim tashkilotlarida o'zbek tilini o'qitish tizimini takomillashtirish, uning sofligini saqlash va muntazam boyitib borish, zamonaviy axborot texnologiyalari





va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini kengaytirish maqsad qilingan.¹

Asosiy qism. "Multimodallik" tushuncasi (lotincha multos-ko'p, modus-usul, kanal) ma'lumotni bir vaqtning bir nechta kallar: vizual, auditiv, kinestetik kanallar orqali uzatish va qabul qilishni anglatadi. Multimodallik nazariyasining asoschilaridan biri Richerd Mayerning multimodal o'rganishning kognitiv nazariyasi quyidagi uch asosiy qoidaga asoslanadi:

1. Ikki kanal tamoyili- bu tamoyilda inson ma'lumotni qayta ishlash uchun ikkita alohida kanalga egaligi ta'kidlanadi, bular: vizual (ko'rish) va auditiv (eshitish) kanallari. Agar material ikkala kanal orqali taqdim etilsa, o'rganish samaradorligi oshadi deb ta'kidlaydi.

2. Cheklagan yuk tamoyili- bu tamoyilning asosiy xususiyati shundaki, materillar oshiqcha yuklamasiz, qismlarga ajratib berilishi.

3. Faol qayta ishlash tamoyili- o'quvchi yangi bilimlarni faol ravishda tizimlashtirib, mavjud bilimlari bilan bog'lagandagini samarali o'zlashtirish yuz beradi.²

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish va ona tili fanidan bilimlarini boyitishda multimodal asosida o'qitish juda ham muhim va samaralidir. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy faoliyat to'liq rivojlanmagan hisoblanadi. Bu xususiyatni rivojlantirish albatta o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Bu borada taniqli rus olimi Lev Vigotskiy "nutq va tafakkur yetti yosh atrofida birlashadi"³-deya ta'kidlaydi. Taniqli psixolog Jan Pijet boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning nutqini "gesentrik nutq" ya'niy, o'z-o'ziga qaratilgan nutq deb aytadi va bu yoshdagi bolalarning nutqi hali ijtimoiy muloqot vositasi bo'lolmasligini ta'kidlaydi.⁴

O'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish uchun multimodal texnologiyalarning ahamiyati shundaki, bu kabi texnologiyalarda o'quvchilar ma'lumotni ham audio ham vizual va tasvir ko'rinishida qabul qiladi, shuning natijasida o'quvchilarning ma'lumotni qabul qilish va qayta ishlashi osonlashadi. Bu o'z navbatida nutqiga ham ta'sir qiladi. Zamonaviy multimodal texnologiyalar sun'iy intellekt texnologiyalari bilan qurollanganligi, o'quvchilar uchun qulaylik

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025). 2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2025-2026-yillarda amalga oshirish dasturi (PQ-308-sonli Qarorga ilova). Lex.uz. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7776360>

² Mayer, R. E. (2014). Cognitive theory of multimedia learning. In R. E. Mayer (Ed.), The Cambridge handbook of multimedia learning (2nd ed., pp. 43-72). Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/CBO9781139547369.005>

³ Vygotsky, L. S. (2012). Thought and language (A. Kozulin, Ed. & Trans.; Rev. ed.). MIT Press. (Original work published 1934)

⁴ Radul, I. H. (2019). PSIXOLOGIIYADA BOLALAR NUTQINING EGOSENTRIZMINI TADQIQOT QILISH. Insight: Jamiyatning psixologik o'lchamlari, 2, 52-57.

<https://doi.org/10.32999/2663-970X/2019-2-7>





yaratadi, chunki o'quvchilar sun'iy intellekt bilan bimalol suhbat qurishi, savollarga javob olishi va xatolarini bilib olishi mumkin. Natijada olgan bilimlarini mustahkamlab olishi, og'izaki nutqini rivojlantrishi mumkin bo'ladi.

Hozirgi zamon boshlang'ich sinf o'qituvchisining eng katta muammolaridan biri bu bolani "gapirtiraolmaslik"dir. Buning asl sababi bola uyda kam muloqt qilishi, ota-onaning farzandi bilan kam vaqt o'tkazishi, bolaning ayni muloqot davri har xil gadjetlar bilan o'tishi hisoblanadi. "Youtube" platformasini oladigan bo'lsak undagi bolalar uchun mo'ljallanga vidiolar juda tushunarsiz va juda tez gaplar bilan tasvirlangan. Buning natijasida o'quvchining nutqida ularga taqlid qilish orqali tushunarsizlik va so'zlarni to'g'ri tallafuz qilaolmaslik kabi hususiyatlar paydo bo'ladi. To'g'ri nutq shakllanishi uchun albatta qaytar aloqa bo'lishi kerak, ya'ni, qabul qilgan ma'lumotlari asosida kimgadir gapirib berishi yoki o'sha ma'lumotni tushuntrib berishi kerak bo'ladi. Bunda o'quvchilar nutqini rivojlantrishda multimodalli texnologiyalarning samarasi juda yuqori hisoblanadi. Bu kabi multimodal vositalarda faqatgina audio yoki vidio ko'rinishidagi ma'lumotlar emas balki, nutqni rivojlantrish uchun turli xil matn tuzish, so'zni topish kabi o'yinlar ham mavjuddir. Bu kabi o'yinlar o'quvchi so'zni to'g'ri qo'llay olishi, nutqda so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishi kabi ko'nikmalarini shakllantradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, multimodalli vositalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy faoliyatini rivojlantrishda nazariy jihatdan samarali didaktik vosita hisoblanadi. Ushbu vositalar o'quvchilarning yosh hususiyatlariga mos keladi, ularning eshitish va ko'rish kanallarini faollashtirib, o'rganish samaradorligini oshiradi. Audio vositalar asosan talaffuz va diksiyani, vidio vositalar hikoya qilish va diolagni, animatsiya vositalari esa mavhum tushunchalarni konkretlashtrish va ijodiy fikrlashni rivojlantrishga xizmat qiladi.

O'zbekiston ta'limidagi multimodal texnologiyalarni isloh qilish, ularning sifatiga e'tibor berish, undagi ma'lumot va mashg'ulotlarni bola yoshiga moslashtrish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025). 2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2025-2026-yillarda amalga oshirish dasturi (PQ-308-sonli Qarorga ilova). Lex.uz. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7776360>
2. Mayer, R. E. (2014). Cognitive theory of multimedia learning. In R. E. Mayer (Ed.), The Cambridge handbook of multimedia learning (2nd ed., pp. 43-72). Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/CBO9781139547369.005>





3. Vygotsky, L. S. (2012). Thought and language (A. Kozulin, Ed. & Trans.; Rev. ed.). MIT Press. (Original work published 1934)
4. Radul, , IH (2019). PSIXOLOGIYADA BOLALAR NUTQINING EGOSENTRIZMINI TADQIQOT QILISH. Insight: Jamiyatning psixologik o'lchamlari , 2 , 52-57. <https://doi.org/10.32999/2663-970X/2019-2-7>

